

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ZARURATI

Ozodova Bonu Zafar qizi

*UrDU "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi*

Matchonova Nazokat Qudrat qizi

*UrDU "Maktabgacha ta'lim metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi*

Kalit so'zlar: texnologiya, raqamli texnologiya, elektrlashtirish, kompyuter, multimedia vositalari, maktabgacha ta'lim, mashg'ulot, o'yin.

Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Dunyo texnologiyalar rivojlanishining butunlay yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Dastlab bug' mashinalari yaratilgan edi. Keyin elektrlashtirish davri bo'ldi, so'ngra axborotlashtirish. Hozirgi kunda raqamlashtirish davri boshlanyapti. Biz katta miqdordagi ma'lumotlar va ularga asoslangan texnologiyalar davrida yashayapmiz. Raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi va keng miqyosda qo'llanilishi ishlab chiqarish sohasini va jahon bozorini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Ushbu o'zgarishlar ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning mazmun-mohiyati yangicha tus olmoqda. Ta'limda kompyuterlardan foydalanish allaqachon odatiy holgaaylandi. Zamonaviy kompyuterlar va dasturiy ta'minotlarning xususiyatlari va imkoniyatlari doimiy ravishda ortib bormoqda. Kompyuterning ma'lumotni grafik tasvir, video, ovoz, matn ko'rinishlarida ifodalash va qayta ishslash qobiliyati bolalarga faoliyatning odatiy o'yinlar va o'yinchoqlardan mutloq farq qiluvchi yangi vositasini kashf qilishga imkon beradi. Bularning barchasi maktabgacha ta'limga va o'z navbatida umumiyligi ta'limga yangi talablar qo'yadi. Maktabgacha ta'lim tizimida yangi raqamli texnologiyalarni, multimedia vositalarini joriy qilish zarurati tug'iladi.

MDH va xorijiy davlatlardagi aksariyat tadqiqtchilar fikriga ko'ra, maktabgacha yoshdagagi bolalarga ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonida multimediali kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'yin faoliyati orqali amalga oshirilishi, yana ham muvaffaqiyatga erishish uchun didaktik kompyuter o'yinlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Raqamli texnologiyalarning maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llanilishining bir qator ijobiylari va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiylari tomonlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- ta'limning individuallashishi;

- bolalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarining paydo bo‘lishi;
- bajariladigan topshiriqlar hajmining ortishi;
- katta hajmdagi ma’lumotlarni yetkazish imkoniyati;
- ta’lim jarayoni intensivligining oshishi;
- integratsiyalashuv orqali zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish imkoniyati;
- tarbiyachi mehnatining engillashuvi¹
- raqamli texnologiyalardan foydalanishning salbiy tomonlarisifatida quyidagilarni sanash mumkin:
- tarbiyachida kompyuter savodxonligining pastligi;
- mashg‘ulotlarga tayyorlanish uchun tarbiyachidan ko‘p vaqt talab etilishi;
- axborot texnologiyalari va mashg‘ulotlarning integratsiyasini ta’minlashdagi murakkabliklar;
- kompyuterda ishslash vaqtida bolalarning o‘yin, musiqa va shukabilardan uzilib qolishi.²

Sanab o‘tilgan kamchiliklarga qaramasdan, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar ning qo‘llanilishiga zarurat tobora kuchayib bormoqda, chunki multimedia vositalari bolalar faoliyatini o‘yin shaklida yanada qiziqarli va jozibali tashkil etish va bu orqali ularning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish uchun imkon yaratadi.³

Shu nuqtai nazardan, ta’lim-tarbiyaning an’anaviy metod, vosita va texnologiyalari bilan bir qatorda zamonaviy shakllaridan foydalanish, xususan, ta’lim-tarbiyaga yo‘naltirilgan raqamli texnologiyalar, milliy multimedia vositalarini ishlab chiqish va ulardan maqsadli foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ko‘pgina rivojlangan davlatlar mакtabgacha ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarning qo‘lanilishi bolalarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortishiga, bilish imkoniyatlarining kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, bilimlarni egallash va mustahkamlash mashg‘ulotlari yangicha usullarda, ayniqsa, o‘yin shaklida o‘tkazilganda, bu bolalarning diqqatini jamlashni ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalar o‘rganiladigan materialni ko‘p marta va har xil usullarda takrorlashga imkon yaratadi. Uning yordamida bolalar mustaqillikni

¹ Abdullaeva B. va boshq. Matematika / metodik qo’llanma. – “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T., 2014. Jalolova G.Q. Bolalarni maktabga tayyorlashda noan’anaviy o‘yinlardan foydalanish / Metodik qo’llanma. - Toshkent, 2004.

² Воронина Л.В., Утюмова Е.А. Современные технологии математического образования дошкольников / под общ. ред. Л.В.Ворониной. – Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т, 2013. – 282 с.

³ Гершунский Б.С. Компьютеризация в сфере образования: проблемы и перспективы. - М.: Педагогика, 1987 г. - 255 с

o‘rganadilar va ularda o‘z-o‘zini nazorat qilish malakalari paydo bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy inson hayoti va faoliyatining deyarli barcha sohalariga asta-sekin kirib borayotgan kompyuterlashtirish va texnologiyalashtirish jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o‘qitish yondashuvlariga ham o‘ziga xos tuzatishlar, moslashtirishlar kiritmoqda. Bolalar bog‘chalarida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy tadqiqotlar nafaqat buning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, balki aql-idrok va umuman bola shaxsining rivojlanishida kompyutering alohida o‘rni borligini ishonchli tarzda isbotlamoqda. O‘yin va o‘rganish imkoniyatlarining ulkan salohiyatiga ega bo‘lgan kompyuter bolaga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, ammo har qanday texnika singari uni ham pedagog yoki ota-onaning qat’iy nazorati va boshqaruvida qo‘llanilgandagina salmoqli ijobiy natijaga erishish mumkin. Shunday ekan, pedagog yoki ota-onsa o‘z oldiga qanday maqsadlarni qo‘yadi, bu maqsadlarga qanday yo‘llar bilan erishadi, kompyutering bolaga ta’sirini qanday e’tiborga oladi, eng avvalo shu kabi masalalarni hal qilishga to‘g‘ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasining ‘Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595 Qonuni, 16.12.2019 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637 Qonuni, 23.09.2020 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarori, 30.09.2018-y.
4. Abdullaeva B. va boshq. Matematika / metodik qo‘llanma. – “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T., 2014.
5. Jalolova G.Q. Bolalarni maktabga tayyorlashda noan’anaviy o‘yinlardan foydalanish / Metodik qo‘llanma. - Toshkent, 2004.
6. Воронина Л.В., Утюмова Е.А. Современные технологии математического образования дошкольников / под общ. ред. Л.В.Ворониной. – Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т, 2013. – 282 с. 6 6
7. Гершунский Б.С. Компьютеризация в сфере образования: проблемы и перспективы. - М.: Педагогика, 1987 г. - 255 с